

## AHMAD LUTFIY QOZONCHI ASARLARIDA QO‘LLANILGAN BA’ZI OMONIM SO‘ZLARNING IZOHI

*Imomqulova Gulchehra Norboboyevna*

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika  
instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida  
assistenti*

*Aslanova Marjona Azamatjonovna*

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika  
instituti Filologiya fakulteti O‘zbek tili va  
adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada mashhur turk yozuvchisi Ahmad Lutfiy Qozonchining asarlarida qo‘llanilgan ba’zi omonimlar va ularning izohiga doir fikr-mulohazalar yuritilgan. Ularning ma’nosiga oid fikrlar berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Omonimlar, leksik omonimiya, omoformalar, omofonlar, leksema, tahlil.

XX asr turk adabiyotining yirik vakillaridan biri Ahmad Lutfiy Qozonchi ijodi o‘ziga xosligi va ko‘p qirraligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiyotini qamrab olgan milliylik, odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g‘oyalar tamoyili beixtiyor kitobxonni mushohadaga chorlaydi. Yozuvchi hayot qiyinchiliklarini, undagi to‘siqlarni yengib o‘tish haqida ruhlantiruvchi asarlari insonga kuch bag‘ishlaydi.

Omonimlar shakli bir xil, ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlardir. Ular umumiy ma’no unsuriga ega bo‘lmagan tasavvuriy bog‘lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladi.

Omonimlar orasida semantik aloqa bo‘lmaydi. Bunday so‘zlarning tilda mavjud bo‘lishiga va shunga bog‘liq hodisalarga omonimiya deyiladi. Omonimiyada shakli bir xil bo‘lgan ikki yoki undan ortiq so‘z (leksema) nazarda tutiladi: Omonim leksemalarning ma’nolari har xil bo‘ladi, bu ma’nolar o‘rtasida bog‘lanish yo‘q. [1;179]

Professor Hasanboy Jamolxonov omofonlar va omograf hodisalariga quyidagicha ta’rif berib o‘tadi: “Omofonlar - talaffuzi bir xil, yozilishi har xil bo‘lgan leksemalardir. to‘n- (kiyim) - ton (tovush toni)

Omograflar - yozilishi bir xil talaffuzi har xil bo‘lgan leksemalardir. soya - (quyish nuri tushmaydigan salqin joy) - soya- (dukkakli o‘simlikning bir turi va uning doni)

Mohir turk yozuvchisi Ahmad Lutfiy Qozonchi ham o'z asarlarida omonimiyadan keng foydalangan.

Jumladan, "Qaynona" asarida qo'llangan "asr" so'zi ham omonimiyaga misol bo'la oladi. "Munavvarxonim asr namozini o'qib bo'ldi". [3]

O'zbek tilining izohli lug'atida "asr" so'zining ikki ma'nosi qayd qilingan.

asr (1) - "davr, zamon" yuz yillik davr, yuz yil.

asr(2) - "tushdan keyingi, quyosh botishiga yaqin vaqt" Quyosh botish chog'idan bir soatcha oldingi payt va shu paytda o'qiladigan nomoz vaqti.

Yuqorida keltirilgan "Qaynona" asaridan parchada "asr" so'zining ikkinchi ma'nosi qo'llanilgan. Bu so'zni qo'llash bilan adib asar qahramonlari allohni taniydigan, toat-ibodatini vaqtida ado etadigan imon- etiqodli insonlar ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Ahmad Lutfiy Qozonchi boshqa asarlarida ham omonimiyadan foydalanadi.

Jumladan, "O'gay ona" asarida foydalangan.

Bu esa "yuz" va "tush" so'zlarida ko'rinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zlar quyidagicha tahlil qilinadi.

"Yuz" so'zining uch xil ma'nosi qayd qilingan.

yuz (1) - inson yuzi

yuz (2) - biron- bir jism yuzasi

yuz (3)- 100 soni

"O'gay ona" asarida "yuz" so'zining birinchi ma'nosi, ya'ni ( inson yuzi) ma'nosi qo'llanilgan.

"Tush" so'zining ham uch xil ma'nosi izohlangan.

tush (1) - tushki payt

tush(2) - uyquda vujudga keladigan subyektiv psixik hodisa

tush(3) - tushmoq fe'li

"O'gay ona" asarida tush so'zining ikkinchi ma'nosi, ya'ni ( uyquda vujudga keladigan psixik holat ) ma'nosi qo'llanilgan.

Asarning bir qismida o'gay onaning zug'umlaridan charchagan bolakay o'zining onasini tushida ko'rishi voqeasi aks etadi. Ahmad Lutfi Qozonchi asarlari o'quvchining diqqatini beixtiyor o'ziga tortishi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Asar qahramonlari hayotida qancha qiyinchiliklarga duch kelsa ham sabr- toqati bilan qiyinchiliklarni yengib o'tishadi. Ahmad Lutfiy Qozonchi ta'sirchanlikni oshirish, so'zdan mahorat bilan foydalanishda omonim so'zlarga alohida e'tibor qaratgan hamda mahorat bilan qo'llay olgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jamolxonov.H "Hozirgi o'zbek adabiy tili" - Toshkent: "Talqin"2005. 272 b
2. O'zbek tilining izohli lug'ati.
3. Ahmad Lutfiy Qozonchi "O'gay ona" asari. www.ziyo.uz.
4. Ahmad Lutfiy Qozonchi "Qaynona" -Toshkent: Movarounnahr" 2004-yil, 80 b.